

**TA'LIM JARAYONINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA TASHKIL QILISHDA QO'LLANILADIGAN ZAMONAVIY TA'LIM METODLARI**

Olimova Dona Shokirovna

PhD, p.f.n.dots Urganch davlat tibbiyot instituti O'zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrası mudiri

Iskandarov Sherzodbek Quدرات o'g'li

Urganch davlat tibbiyot institute Nevrologiya 1 kurs magistranti

E-mail: iskandarovsherzodbek7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik texnologiya asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim metodlari tahlil qilindi. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyat va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida ko'rib chiqildi. Maqolada an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning uyg'unlashuvi, interfaol metodlar ya'ni, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, davra suhbatı, loyiha asosidagi ta'lim, gamifikatsiya, aralash ta'lim texnologiyasi kabi zamonaviy metodlarning mohiyati, afzalliklari va qo'llanilishi yoritilgan. Mazkur ishni o'rganish davomida O'zbekiston tajribasi va xalqaro tajribalar solishtirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarni faol ishtirokchiga aylantiradi va zamon talablariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Maqola O'zbekiston Respublikasida ta'lim islohotlarini yanada takomillashtirishga oid takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, zamonaviy ta'lim metodlari, interfaol metodlar, loyiha asosidagi ta'lim, gamifikatsiya, aralash ta'lim texnologiyasi, ta'lim sifati, innovatsion yondashuvlar, O'zbekiston ta'lim tizimi.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri, "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi" va Prezident Sh.M. Mirziyoyevning mamlakatimiz ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan farmonlari ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qayta tashkil etishni talab etmoqda.[1] Xususan, an'anaviy ta'lim usullari o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishga o'rgatgan bo'lsa, pedagogik texnologiyalar o'quvchini jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi, uning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy qobiliyatlarini



rivojlantiradi. Pedagogik texnologiya bu ta'lim maqsadini aniq belgilashdan boshlab natijalarni baholashgacha bo'lgan jarayonni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishning tizimli yondashuvi bo'lib, u o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini kafolatlaydi.[2]

Maqolaning maqsadi. Pedagogik texnologiya asosida qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim metodlarini tahlil qilish, ularning O'zbekiston va xalqaro tajribadagi qo'llanilishini ko'rib chiqish hamda amaliy tavsiyalar berishdan iboratdir.

Dolzarbligi . Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar davrida ta'lim metodlarini yangilamasdan turib yuqori sifatli ta'limni ta'minlash mumkin emas. Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish, bilish va o'zlashtirish jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir. N.N. Azizxo'jayeva ta'kidlaganidek, pedagogik texnologiya o'qituvchi va ta'lim oluvchi munosabatlarini aniq belgilaydi va natijaga kafolat beradi.[3] Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ikki guruhga bo'linadi: an'anaviy va innovatsion. Bilamizki, innovatsion texnologiyalar o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtiradi hamda, tizimli fikrlash va ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllanishiga turtki bo'ladi.

O'zbekistonda pedagogik texnologiyalarni joriy etish "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va keyingi islohotlar doirasida amalga oshirilmoqda. Masalan, oliy va professional ta'lim muassasalarida interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) keng qo'llanilmoqda. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga va xalqaro standartlarga moslashishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim metodlari o'quvchini asosiy markazga qo'yadi va ularning faol ishtirokini ta'minlaydi. Interfaol metodlar ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi usullardir. Ularga aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, davra suhbat, bahs-munozara va muammoli vaziyatlar kiradi. Misol sifatida aytishimiz mumkinki, R. Musurmonovning fikricha, bu metodlar ta'lim samaradorligini oshiradi, chunki o'quvchi butun jarayonda faol ishtirok etadi.[5] Masalan, "Har kim har kimga o'rgatadi" metodi o'quvchilarga o'rgatuvchi rolini beradi: ular bilimni o'zlashtirib, o'rtoqlariga yetkazadi. Bu usul axborotni eslab qolish va qiziqishni kuchaytiradi. "Sinkveyn" metodi esa bitta so'z asosida savollar orqali gap tuzishni o'rgatadi va mavzuni chuqur tushunishga yordam beradi. "Tarmoqlash" metodi g'oyalar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlaydi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.[6] Aralash ta'lim metodi an'anaviy dars va raqamli platformalarni birlashtiradi. Teskari dars esa yangi materialni



Learning and Sustainable Innovation

uyda o'rganishni, sinfda esa amaliy mashq va muhokamani nazarda tutadi. Bu metod o'quvchilarga o'z tezligida o'rganish imkonini beradi va sinf vaqtini faol faoliyatga bag'ishlaydi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu metod bilimni saqlash darajasini oshiradi va o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi.[7] PBL real hayot muammolarini loyiha orqali hal qilishga asoslanadi. O'quvchilar guruh bo'lib ishlaydi, tadqiqot olib boradi va natijani taqdim etadi. Bu metod hamkorlik, tanqidiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. O'zbekistonda PBL professional ta'limda keng qo'llanilmoqda.[8] Gamifikatsiya ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini olib kirishdan ibortadir. Bu usul o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va raqobatbardosh muhit yaratadi. Teskari dars metodi bilan birlashtirilganda samarasi yanada yuqori bo'ladi deb ayta olamiz.

O'zbekistonda zamonaviy metodlarni qo'llashga doir ko'plab misollar mavjud. Bularga misol sifatida maktab va oliy o'quv yurtlarida interfaol darslar, AKT vositalari (Zoom, Moodle) va loyihalar orqali ta'lim tashkil etish kabilarni olishimiz mumkin. Xalqaro tajribalarda esa teskari dars va PBL asosiy o'rin tutadi. Masalan, Finlyandiyada o'quvchilar loyihalar orqali mustaqil o'rganadi, bu esa PISA reytingida yuqori natijalarga olib keladi. O'zbekiston tajribasida Qarshi davlat universiteti va boshqa muassasalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ijobiy natijalar bermoqda: ta'lim sifati oshmoqda, o'quvchilarning faolligi ortmoqda.[10]

Zamonaviy metodlar albatta ta'lim sifatiga o'zining katta hissasini qo'shmoqda. Yuqori motivatsiya, bilimni chuqur o'zlashtirish, individual yondashuv, raqamli ko'nikmalar rivoji kabilar bu tizimning ta'limga berayotgan afzalliklaridan ba'zilaridir. Shuningdek, ma'lum miqdorda salbiy tomonlari ham yo'q emas ya'ni, texnik bazaning yetarli emasligi, o'qituvchilarning malakasini oshirish zarurati, vaqt va resurs talabi kabilar hamon salbiy sababligicha qolmoqda. Ayni vaqtda shu muammolardan qutulish uchun ba'zi takliflarni berib o'tamiz.

1. O'qituvchilar uchun doimiy treninglar,
2. infratuzilmani yaxshilash,
3. milliy darsliklarni zamonaviy metodlar bilan boyitish kabilar albatta tizimdagi muammolarni oldini olishga ijobiy ko'mak bo'la oladi.

Xulosa. Xulosa sifatida ayta olamizki, pedagogik texnologiya asosida zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llash ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim shartidir. Interfaol,teskari metod, PBL va gamifikatsiya kabi metodlar o'quvchilarni faol



ishtirokchiga yalantirishga hizmat qiladi, ta'lim sifatini oshiradi va mamlakatimiz kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro darajaga ko'taradi. O'zbekiston ta'lim tizimida bu yondashuvlarni yanada keng joriy etish orqali "Yangi O'zbekiston"ning maqsadlariga erishish mumkin. Kelajakda bu sohada tadqiqotlar va amaliy tajribalarni kengaytirish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

- Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
- Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
- Sherboyev Q.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida samarali qo'llash // CyberLeninka, 2023.
- Musurmonov R. Zamonaviy ta'lim metodlari – ta'lim samaradorligi kafolati // Oriens, 2022.
- Ziyayeva Sh.R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – dars samaradorligining muhim omili // Ilmiy anjumanlar, 2024.
- Yang F.C. Examining Flipped Classroom and Project-Based Learning // PMC, 2025.
- Hiebert J., Grouws D.A. The effects of classroom mathematics teaching on students' learning // Second handbook of research on mathematics teaching and learning, 2007.
- Lopes S.F.S. The Flipped Classroom Optimized Through Gamification // De Gruyter, 2024.
- Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.
- Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H. Innovasion ta'lim texnologiyalari. – T.: Sano standart, 2015.
- Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – T.: TDPU, 2013.